



@buxdu_uz



@buxdu1




@buxdu1




www.buxdu.uz

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004

2/2025

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



2/2025

	allusion)	
Musaev I.X.	Zamaxshariyning "Al-Mufiyd" asarida noto'g'ri fe'llarning zamonlarda o'zgarish mezonlari	104
NAVOIY GULSHANI		
Turayeva M.T.	«Odamki bashar nasli silkiga erur payvand»...	109
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Жаҳонов Т.Х.	Шимолий Бақтриянинг кушонлар даври муҳофаа иншоотлари борасида айрим мулоҳазалар (буржлар мисолида)	113
Кличев О.А.	Бухоро қўшбеги девонхонаси дафтарларининг таҳлили	119
Toshpo'latov M.Z.	Uchquduq tumani yoshlarini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlarning tarixiy tahlili (2017-2024)	124
Narziyeva R.R.	“Xan daryosi bo'yidagi mo'jiza” yoxud “Koreys mo'jizasi”ning yaratilish asoslari	132
Fozilov M.A.	Uchinchi renessans poydevorini yaratishda jadidchilik siyosiy harakatining roli	137
Hayitov Sh.A., Elmurodova N.B.	1977-1978-yillarda “vatan” jamiyatining xorijdagi o'zbeklar va ularning uyushmalari bilan aloqalari tarixidan (arxiv manbalari asosida)	141
Abdullayeva D.A.	Tarixiy yodgorliklar muhofazasi va ularni ta'mirlash amaliyoti tarixidan	146
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
To'ychiyeva R.A.	Hindiston tashqi siyosatining asosiy tamoyil va yo'nalishlari	151
Shukurov A.K.	O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konseptual-huquqiy asoslari	166
Xodjimuratova D.S.	“Veloyate Fakih” Eron teokratik boshqaruv modelining asosi sifatida	174
Усманова Х.Х.	Национальная стратегия целей устойчивого развития Республики Узбекистан и многостороннее сотрудничество	180
Musayev M.T.	Missionerlikning noan'anaviy ko'rinishlari va ularni namoyon bo'lish shakllari	184
Turdiyev B.S.	Yangi O'zbekiston davlat siyosatini amalga oshirishda rivojlanish strategiyalarining roli	189
MUNOSABAT *** REFLECTION *** ТОЧКА ЗРЕНИЯ		
Ahmedov A.R., Axmadov A.H.	Buxoroni sharif qilgan adiblarga xiyobon qilsak	196

TARIXIY YODGORLIKLAR MUHOFAZASI VA ULARNI TA‘MIRLASH AMALIYOTI TARIXIDAN

Abdullayeva Dilfuza Abdujalilovna,

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası o‘qituvchisi,

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktor (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqola XX asrning 20-yillari mobaynida Buxoro me‘moriy obidalarini muhofaza qilish va ularni ta‘mirlash kabi vazifalarda faoliyat yuritgan muassasa hamda tashkilotlar tashabbusi bilan tashkil etilgan ekspeditsiya va ilmiy safarlar tarixiga bag‘ishlanadi. Ta‘mirlash tashkilotlari vakolat doirasida amalga oshirilgan ishlarning tarixiy yodgorliklar taqdiridagi ahamiyati va qiymati asoslanadi. Arxiv hujjatlari asosida, muassasalar faoliyati davomida ta‘mirlangan me‘moriy yodgorliklar to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, sohaga doir ma‘lumotlar orqali ta‘mirot tarixidagi tizimlashuv, erishilgan ijobiyliklar va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar kabi masalalar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: tashkilot, Suardel, obida, ekspeditsiya, D.I.Nechkin, restavratsiya, qo‘lyozma, Ark, ta‘mirlash, ekspluatatsiya.

ИЗ ИСТОРИИ ОХРАНЫ ИСТОРИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ И ПРАКТИКИ ИХ РЕМОНТА

Аннотация. данная статья посвящена истории экспедиций и научных поездок, организованных в 20-е годы XX века по инициативе учреждений и организаций, выполнявших такие задачи, как охрана и ремонт архитектурных памятников Бухары. В компетенции ремонтных организаций обосновывается значимость и ценность проводимых работ в судьбе исторических памятников. На основании архивных документов приводятся сведения о памятниках архитектуры, которые ремонтировались в ходе деятельности учреждений. Также с помощью отраслевых данных анализируются такие вопросы, как систематизация истории ремонта, достигнутые положительные результаты и допущенные недостатки.

Ключевые слова: организация, цуардел, обида, экспедиция, Д.И.Нечкин, реставрация, рукопись, ремонт, эксплуатация.

FROM THE HISTORY OF HISTORICAL MONUMENTS PROTECTION AND THEIR REPAIR PRACTICE

Abstract. This article is devoted to the history of expeditions and scientific trips organized in the 20s of the XX century on the initiative of institutions and organizations that performed tasks such as the protection and repair of architectural monuments of Bukhara. The competence of repair organizations substantiates the importance and value of the work carried out in the fate of historical monuments. On the basis of archival documents, information is provided on architectural monuments that were repaired during the activities of the institutions. Industry data is also used to analyze issues such as the systematization of repair history, the positive results achieved and the shortcomings.

Keywords: organization, foundation, offense, expedition, D.I.Nechkin, restoration, manuscript, repair, operation.

Kirish. XX asrning 20-yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat madaniy yodgorliklarning muhofazasi bilan shug‘ullanadigan vakolatli tashkilot tuzishni taqozo etgandi. Bir ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumdan tamoman yangisiga o‘tish, albatta, qadimiy yodgorliklarga munosabatda o‘z ifodasini topmay qolmasdi. Mazkur davr tarixini tahlil etar ekanmiz, jarayon turli bosqichlarda olim va mutaxassislarning uzoq izlanishlari, o‘lkashunoslarning ko‘p yillik harakatlari natijasida yuz berganligiga amin bo‘ldik.

Ma‘lumki, Turkistonda sovet hokimiyati o‘rnatilganidan keyin tarixiy yodgorliklar muhofazasini tashkil etish vazifasi dastlab respublika Markaziy Arxiv boshqarmasi Suardel(Цуардел) ixtiyorida bo‘lgan. Bu borada 1920-yil 30-yanvarda Turkiston ASSR MIQ tomonidan “Fan va san‘at, tarixiy yodgorliklar

muhofazasini Suardel(Цуардел) ixtiyoriga o'tkazish" haqida dekret qabul qilinadi[1]. Shu bilan birga faoliyati to'xtab qolgan Turkiston arxeologiya havaskorlar to'garagi va rus geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi vazifalari ham tashkilot zimmasiga yuklatildi. Endilikda o'lkadagi arxeologik tadqiqotlar, yodgorliklar muhofazasi bilan bog'liq barcha ishlar Suardel zimmasiga o'tadi. Tarixiy yodgorliklarni ro'yxatga olish, muhofaza qilish, ta'mirlash va ilmiy asosda o'rganish kabi masalalar tashkilotning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilandi. Tashkilot rahbari D.I.Nechkinning o'lkadagi hokimiyat vakillari hamda markaz mas'ullari bilan olib borgan yozishmalarini o'rganish uning Buxoro me'moriy obidalarini ta'mirlashda qo'shgan hissasi va bu boradagi mas'uliyatli yondashuvini ham ko'rsatdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XX asrning 20-yillarida Buxoro me'moriy obidalarining ta'mirlanishi va ushbu jarayon bilan bog'liq masalalarni o'rganishda arxiv hujjatlari birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Milliy arxivining Turkkomstaris va Sredazkomstaris –R-394-fondning 3, 14, 21, 122, 128–yig'majildlarida Tabiat, san'at, qadimiy yodgorliklarni saqlash va muzey ishlari bo'yicha Turkiston qo'mitasining faoliyati natijasida Buxoro hududiga uyushtirilgan ekspeditsiyalar, ilmiy safarlar hamda taftish komissiyalarining hisobotlari jamlangan. Ushbu manbalarning tahlili Buxoro tarixiy yodgorliklarining muhofazasi va ularni ta'mirlash, qayta tiklash ishlariga munosabat masalasi aks etganligini ko'rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. XX asrning 20-yillarida Buxoro me'moriy obidalarining ta'mirlanishi bilan bog'liq masalalar mazkur usullar yordamida yoritildi.

Natija va muhokamalar. Shuni ta'kidlash joizki, 1920-yilning sentabr oyida Buxoro me'moriy obidalarini ro'yxatga olish, qo'lyozma hujjatlarni aniqlash va jamlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekspeditsiya shakllantiriladi. Chunki Buxoroda sovet hokimiyati o'rnatilish davrida ko'plab tarixiy binolarga ziyon yetgan, ayrimlari vayrona holga kelib qolgan edi.

1920-yil sentabrda Arxiv ishlari markaziy boshqarmasi hamda Turkkommissiya vakillari tomonidan Buxorodagi vaqtinchalik tayinlangan favqulodda komendantga Ark binosida izlanishlar olib borish uchun murojaat qilingan. Ruxsat olingach, D.I.Nechkin, V.V.Bartold, V.L.Vyatkin, A.E.Shmidt, P.E.Kuznetsov, E.B.Betger va A.A.Garritskiylar ishtirokida tuzilgan maxsus komissiya Arkdagi tarixiy ahamiyatga molik bino va buyumlarni o'rganishga kirishadi[2].

Olimlar Buxoro arkinging sharqiy, ikkinchi darvozasini o'rnini aniqlash maqsadida yodgorlikni to'liq ko'zdan kechirishadi. Izlanishlar davomida, qal'a devorlarining bir necha marotaba qayta tiklanganligi darvoza o'rnini aniqlashga imkon bermaydi, degan xulosaga kelinadi. Shuningdek, akademik V.V.Bartold o'z tadqiqotlarida, so'nggi harbiy harakatlar oqibatida Ark qal'asining tashqi devori va g'arbiy darvozasi asl qiyofasini saqlab qolganligiga qaramasdan, ichki binolari vayronaga aylanganligi va qo'rg'onning to'rtidan uch qismi yonib ketganligini ta'kidlaydi[3].

Buxoro shahridagi qadimiy va san'at ashyolari, kitob va qo'lyozma materiallarini saqlash to'g'risida chora-tadbirlarni belgilash maqsadida 1920-yil 30-sentabr kuni D.I.Nechkin raisligidagi yig'ilish bo'lib o'tadi. Unda mavjud qo'lyozma kitoblar asosida kutubxona tashkil etish, ularni bo'limlarga ajratish va kataloglashtirish, vaqf hujjatlarini jamlash va saqlash ishiga mas'ul bo'lgan vaqf ishlari bo'yicha qo'mita tashkil qilish, buzilish ehtimoli katta bo'lgan tarixiy-me'moriy yodgorliklarda restavratsiya va ta'mirlash ishlarini olib borish choralari ko'rish, Buxoro Xalq Sovet Respublikasidagi mavjud arxiv hujjatlarini to'plash, Buxoro davlat muzeyini tashkil etish maqsadida shaxsiy kolleksiyalardan muzey ahamiyatiga ega buyumlarni ko'zdan kechirish kabi masalalar ko'rib chiqiladi[4].

Komissiya hisobotlarini o'rganish jarayonida, ekspeditsiya davomida uch yuz saksonga yaqin qo'lyozma va hujjatlar yig'ilib, ro'yxatga olinganligi ma'lum bo'ldi[5]. Shu bilan birgalikda Buxoro inqilobiy qo'mitasi bilan hamkorlikda barcha ta'mirlalab va buzilish xavfi mavjud obidalar aniqlanib, ularni saqlab qolish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Registon maydonini vayron bo'lgan qurilishlardan tozalash zarurligi aniqlanadi va birlamchi ta'mirlash ehtiyojiga ega yodgorliklar ro'yxati tuziladi. Jumladan, Minorayi Kalon, Ark qo'rg'oni, Modarixon madrasasi kabilardir. Ularning dastlabki ta'miri uchun kerak bo'ladigan mablag' miqdori (2000 rubl – D.A.) ham hisoblab chiqiladi.

Mazkur ekspeditsiya qo'lga kiritgan diqqatga sazovor natijalardan yana biri sifatida V.L.Vyatkin taklifiga binoan "*Красный Восток*" agitpoyezdi vakillari tomonidan shaharning deyarli barcha tarixiy yodgorliklari suratga tushirilishini aytish mumkin[6].

Shuningdek, tashrif davomida shahar darvozalari, ularni bog'lab turgan devor qoldiqlari ham o'rganib chiqildi. Faqatgina arxiv materiallarini jamlash bilan bog'liq masalada ekspeditsiya vakillari va mahalliy hukumat o'rtasida tushunmovchilik yuzaga keladi. Hujjatlar respublika mulki bo'lganligi uchun BXS

hukumati ularni berib yubora olmasligini, zarurat yuzasidan ulardan foydalanish va nusxa olishgagina ruxsat berishini sabab qilib keltiradi[7]. Madaniy merosga bo'lgan bu kabi munosabatni ijobiy baholash mumkin.

Ekspeditsiya yakunida yodgorliklarni ta'mirlash masalasi yuzasidan aniq choralar ko'rilishi haqida Buxoro inqilobiy qo'mitasiga murojaat qilinganligi ham ahamiyatli. Shuningdek, Moddiy madaniyat akademiyasi va Suardel tashkilotiga Ismoil Somoniy maqbarasini har tomonlama, chuqur ilmiy o'rganish to'g'risidagi taklif ishlab chiqilib yuborilishi buning amaliy natijasi edi.

Mavjud ma'lumotlar tahlili bu jarayonlar yodgorliklar muhofazasi bo'yicha dastlabki tashkiliy davr bo'lganini ko'rsatadi. Natijada Turkkomstaris, Sredazkomstaris keyinchalik Uzkomstaris kabi maxsus muassasa va tashkilotlar ta'sis etildi.

Dastlab, Turkistonda *“Muzei ishi, qadimgi va san'at yodgorliklarini muhofaza qilish Komissiyasi”* va Nizomi tasdiqlanadi[8]. Ushbu komissiya o'z oldiga tarixiy yodgorliklarni ilmiy jihatdan o'rganish, ularni ro'yxatga olish, muhofaza qilish, ta'mirlash kabi vazifalarni qo'ygan edi. Keyinchalik mazkur komissiya *“Muzei ishlari, Turkiston o'tmish va san'at yodgorliklari muhofazasi bo'limi”*ga aylantiriladi. Tashkilot rahbari sifatida D.I.Nechkin tayinlanadi. 1921- yil 12-aprel sanasida esa Maorif xalq komissarligi tomonidan muassasa qo'mitaga o'zgartirilib Nizom tasdiqlanadi. Turkiston ASSR XKK dekretiga muvofiq 1921- yil 22-may kuni Maorif xalq komissarligi tarkibida *“Tabiat, san'at, qadimiy yodgorliklarni saqlash va muzei ishlari bo'yicha Turkiston qo'mitasi”* –Turkkomstaris ta'sis etildi. Endilikda, ushbu tashkilotning qaror va farmoyishlari barcha mahalliy hokimiyatlar uchun majburiy etib belgilandi[9]. Bu tarixiy va madaniy yodgorliklar muhofazasiga rahbarlik qiluvchi davlat boshqaruvi tizimining o'rnatilganligi huquqiy jihatdan asoslanganligini anglatadi.

Turkkomstaris keng ko'lamda faoliyat olib boruvchi, yagona ilmiy-uslubiy va amaliy markaz sifatida namoyon bo'ldi. Mazkur tashkilot oldida o'lka tajribasida uchramagan juda murakkab masalalarni hal qilish mas'uliyati turardiki, o'z vakillarini ilmiy safarlarga yuborish, joylarda komissiya (hay'at)lar ta'sis etish, ekspeditsiyalar tashkil qilish kabi tadbirlar shu mas'uliyat doirasida amalga oshirilgan[10]. Bunday tadbirlar qo'mita bo'limlari faoliyatining kengayishiga ham xizmat qilgan.

Tashkilot faoliyatiga doir hujjatlarning tahlili, 1922-yilga mo'ljallangan ishlar rejasining to'rtinchi bandi Buxoroga tashrif buyurish va Turkkomstaris hamda BXSr hukumati o'rtasida tarixiy yodgorliklarning muhofazasi yuzasidan aloqalarni yo'lga qo'yish masalasidan iboratligini ko'rsatdi[11]. Qo'mitaning 1923-yil yanvar oyidagi yig'ilishida tinglangan A.A.Semyonovning *“Buxoro shahrida olib borilgan arxeologik qazuv ishlari va Somoniylar maqbarasi to'g'risida”*gi ma'ruzasi ham aynan ushbu maqsadga yo'nalganligini anglash mumkin. Qolaversa, yig'ilish bayonnomasiga ilova tarzida berilgan ma'lumotnoma hujjatining tahlili natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, Turkkomstarisning Buxorodagi faoliyati uchun ruxsat olish masalasi 1923-yil yanvar oyidagi D.I.Nechkin va BXSr hukumat rahbari F.Xo'jayev o'rtasidagi kelishuvga asoslanadi.

Unga muvofiq, Buxoro hududidagi arxeologik qidiruv ishlari uchun zarur mablag'ning teng yarmi Turkkomstaris hisobidan, qolgan qismi esa BXSr hukumati hisobidan ajratilishi belgilangan. Ushbu kelishuv Turkkomstaris uchun Buxoroda rasman faoliyat olib borish imkoniyatini yaratdi. A.A.Semyonov arxeologik izlanishlarni Ark qo'rg'oni, Ismoil Somoniy, Sayfiddin Boxarziy maqbarasi hamda Fathobod yodgorliklarida olib borilishi, shu bilan birga Buxoro me'moriy obidalarining albom-atlasini tayyorlash zarurati xususida o'z mulohazalarini bildiradi[12]. Turkkomstaris ushbu yo'nalishdagi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish uchun V.L.Vyatkinni munosib deb hisoblagan.

Keyinchalik, O'rta Osiyo davlat universiteti professori Dmitriy Aleksandrovich Morozov ham Turkkomstaris topshirig'i asosida 1923-yil 22- avgustda tarixiy yodgorliklarni ko'zdan kechirish, ta'mirlash bilan bog'liq jarayonlarni kuzatish vazifalari bilan Buxoroga tashrif buyuradi. Unga qo'mita raisi D.I.Nechkin tomonidan Buxorodagi muzeylar hamda arxiv ishi holati bilan tanishish kerakligi tayinlanadi. Ekspeditsiya natijalari Turkkomstarisning 1923-yil 28-noyabrdagi kengash majlisida *“Tarixiy-arxeologik ekspeditsiya”* xususidagi ma'ruza shaklida bayon etiladi. Olim kuzatuvlari asosida Buxoroda olib borilgan ta'mirlash jarayonining juda sekin va qoniqarsiz amalga oshirilganligi haqida birlamchi xulosaga kelish mumkin. Ma'ruza matnidagi quyidagi jumlar ham ushbu fikrlarni dalillaydi:

“... Ta'mir jarayoni noaniq usulda, tizimlashmagan va asosan suvoq ishlaridan iborat ekanligini aytishim mumkin. Samarqanddan bitta usta 3-5 tacha ishchilar bilan birga ishlayapti, xolos. Ismoil Somoniydagi qadama g'ishtin naqshlar sementli qorishmalar bilan qoplanmoqda. Mir Arab madrasasining shimoliy qismidagi qayta tiklash ishlari natijasida esa eski va yangi g'ishtlar farqlanib, ko'zga tashlanib turibdi. Xuddi shunday kamchilik Minorayi Kalon, Masjidi Kalon va Nodir Devonbegi yodgorliklarida ham uchraydi...”[13].

D.A.Morozov obidalar holati haqida to'xtalar ekan, so'nggi harbiy harakatlar davridagi kuchli asoratlarni hamda vaqt va tabiiy omillar, shuningdek, noo'rin munosabat ta'siri kabilardan yemirilish jarayoni borayotganligining guvohi bo'lganligini ta'kidlaydi. Sekin, ammo to'xtovsiz va aniq temp bilan borayotgan ushbu jarayon qulash arafasida turgan Abdullaxon madrasasining ichki g'arbiy devorida, Ernazar elchi, Nodir Devonbegi madrasalari, Ulug'bek hamda G'oziyon madrasalari binolarida ham ko'zga tashlanadi. Olim bu holat yodgorliklarning noo'rin ekspluatatsiyasi natijasida yanada kuchayayotganligini alohida ta'kidlab o'tadi.

Buxoroda ustun bo'lgan sharqona qadimiy ko'rinish va o'ziga xoslikni qisman bo'lsa-da, saqlab qolishga ko'mak berish maqsadida mazkur ekspeditsiya tomonidan quyidagi vazifalar belgilab olinadi: shahar chizmasini tayyorlash va barcha ijtimoiy xususiyatga ega va madaniy qurilishlarni ushbu tarxda qayd etish; tarixiylik va o'ziga xos go'zallik nishonasi sifatida diqqatga sazovor yodgorliklarni fotosuratlariga muhrlash; yodgorliklar tavsifnomasi (yaratilishi, o'zgarishi, hozirgi holati)ni tuzish. Ushbu vazifalar asosida BXSР maorif vazirligi fotografi M.D.Vizir yordami bilan 20 masjid, 11 ta madrasa va 5 ta maqbara kabi yodgorliklardan jami 72 dona fototasvir olinadi[14]. Yodgorliklarni tavsif etish dasturi ham rus tilida (*o'zbekcha tarjimasi bilan* – D.A.) tuzishga muvaffaq bo'linadi. Bunda, asosan, mahalliy aholidan olingan ma'lumotlarga tayanilgan. Ularning salmoqli qismi buxorolik usta Xo'ja Said Mahmud tomonidan bildirilgan.

D.A.Morozov ekspeditsiyasining yana bir amaliy natijasi bu harbiy topograf Shixriyans tomonidan 1922-yilda olingan tasvirlarga asoslanib, Buxoro shahri tarx chizmasining yaratilishi bo'ldi. Chizma to'rt nusxada tayyorlangan. Shu bilan birga, Buxorodagi barcha aholi manzillari, saroy va hovlilar, ariqlar, asosiy suv bilan ta'minlash manbalari qayd etilgan xarita ham yaratildi. Mazkur xarita 1920-yilgi harbiy-topografik tasvirlarga asoslangan[15].

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi xulosaga kelish o'rinli. Tarixiy yodgorliklar muhofazasi va ularni ta'mirlash amaliyoti tarixida duch kelingan muammolarni bartaraf etish zarurati yuzasidan dastlab Turkkomstaris hamda Sredazkomstaris kabi maxsus muassasalar tuzilgan edi. Ularning Buxoro me'moriy obidalarini ta'mirlash ishidagi ishtiroki ahamiyatlidir. Turkkomstaris hamda Sredazkomstaris qo'mitalari faoliyatiga doir ma'lumotlardan Buxoro me'moriy obidalarining muhofazasi va ta'miroti XX asrning 20-yillarida, asosan, yodgorlikni saqlab qolishga qaratilgan birlamchi texnik ta'mir ishlar doirasidagina amalga oshirilganligi ma'lum bo'ldi. Tahlillar, Sredazkomstaris qo'mitasi ro'yxatida bo'lgan Buxorodagi har bir yodgorlikda amalga oshirilgan ishlarda uning ruxsati talab etilganligi, qolaversa, ta'mirlash ishlari binoning asl holati va tarixiy ko'rinishiga ta'sir etmasligiga alohida e'tibor qaratilganligini ko'rsatdi.

Tarixiy yodgorliklar muhofazasi va ta'miroti bo'yicha maxsus muassasalar tomonidan mutaxassis-olimlardan iborat komissiyalar tuzish va tarixiy-arxeologik, topografik yo'nalishdagi ekspeditsiyalar hamda sohaga doir vazifalar ijrosi uchun ilmiy safarlar tashkil qilish kabi ishlar amalga oshirilgan. Mutaxassislarning Buxoro hududiga tashriflari natijasida me'moriy obidalarning muhofazasi, ro'yxatga olinishi va ta'mirlanishi borasida salmoqli natijalarga erishildi.

ADABIYOTLAR:

1. *Культурное строительство в Туркестанской АССР: Сборник документов: – Т. I, – Т., 1973. – С.350.*
2. *О'zbekiston Milliy arxivi (keying o'rinlarda – O'zbekiston MA), R-394-fond, 3-ro'yxat, 3-yig'majild, 21-22-varaqlar.*
3. *Бартольд В.В. Бухара. Её памятники и их судьба. Сочинения в 9-ти томах. – Т. IV. – М.: Наука, 1966. – С. 282.*
4. *О'zbekiston MA, R-394-fond, 3-ro'yxat, 3-yig'majild, 5-7-varaqlar.*
5. *О'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 122-yig'majild, 10-varaq.*
6. *О'zbekiston MA, R-394-fond, 3-ro'yxat, 3-yig'majild, 6-varaq*
7. *О'zbekiston MA, R-394-fond, 3-ro'yxat, 3-yig'majild, 35-varaq.*
8. *Культурное строительство в Туркестанской АССР: Сборник документов: Т. I, – Т., 1973. – С.359.*
9. *О'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 122-yig'majild, 5-varaq.*
10. *Tarixiy yodgorliklarni saqlash va asrash, shuningdek, arxeologik, etnografik, botanik, zoologik, geografik, geologik, paleontologik ekspeditsiyalarni amalga oshirgan mazkur qo'mita 1921-1925-yillar mobaynida jami 46 ta, shundan yodgorliklar va arxeologiya yo'nalishlari bo'yicha 19 ta ekspeditsiya hamda*

HISTORY

olim-mutaxassislarning ilmiy safarlarini uyushtirgan. Buning natijasida 52 ta tarixiy yodgorlik ro'yxatga olindi. Ushbu ekspeditsiyalar ma'lum hududiy va umumiy xususiyatlarni o'rganishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Qarang: O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 128-yig'majild, 11-varaq; 1-ro'yxat, 193-yig'majild, 6-18-varaqlar.

11. O'zbekiston MA, R-394-fond, 3-ro'yxat, 14-yig'majild, 30-varaq.
12. O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 21-yig'majild, 23-varaq.
13. O'zbekiston MA, R-394-fond, 3-ro'yxat, 21-yig'majild, 287-291-varaqlar.
14. Texnik vositalarning yetishmasligi va sifat darajasi sababli faqatgina 36 dona surat sifatli chiqqan.
15. O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 122-yig'majild, 10-varaq.